



## YOSHLAR ORASIDAGI MEHNAT MIGRATSIYASI MUAMMOLARI

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti*

*Universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrası*

*Sotsiologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

*Maxsimova Madinabonu Maxtum qizi*

*[maxsimovamadina@gmail.com](mailto:maxsimovamadina@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada migratsiya tushunchasi, yoshlar orasida migratsiya jarayonlarining asosiy sabablari, yo'nalishlari tahlil qilinadi. Xususan, mehnat migratsiyasi jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar xatarlar va ularning oqibatlari yoritib beriladi. Maqolada migratsiyaning ijobiy jihatlari va shu bilan bir qatorda salbiy jihatlari ham ko'rib o'tish mumkin.

**Tayanch so'zlar.** Migratsiya, mehnat, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro migratsiya ma'lumotlari, migrantlar, Jahon Banki, noqonuniy migratsiya, statistika.

**Kirish.** Mamlakatimizda yildan yilga migratsiya holatlari ko'payib, rivojlanib, shakllanib bormoqda. Ya'ni ko'proq yoshlar orasida oilaviy sayohatlar, ish uchun yoki o'qish uchun chet safarlari, migratsiya, ko'paymoqda. Migratsiya ikki xil ko'rinishda bo'lishi mumkin: ichki va tashqi migratsiya. Mamlakat ichida ya'ni viloyatlararo bir hududdan boshqa hududga ko'chishlar bu ichki migratsiya bo'lsa, davlatlararo bir davlatdan boshqa davlatga satohatlar tashqi migratsiyaga misol bo'la oladi. Xo'sh bu holat ya'ni migratsiya jarayonlarida yoshlar qanday muammolarga duch keladi? Yoshlar orasida mehnat migratsiyalarining avj olib borishi mamlakat rivoji uchun qaysidir jihatdan ta'sir qiladimi yoki yo'q? Quyida shu savollarga to'liq bo'lmasa-da javob izlab ko'ramiz.



**Metod va materiallar.** Mehnat migratsiyasi (ingl. Labour migration) – bu ish qidirib topish va bandlik bilan bog‘liq hudud bo‘ylab odamlarning almashinishini o‘zida ifodalaydigan migratsiyaning bir turi hisoblanadi.<sup>1</sup> Migratsiya vaziyatga qarab bir necha turli bo‘ladi. Bunda o‘qish, malaka oshirish uchun ketishi, oilaviy, hamkasblar yoki yaqin do‘stlar bir muddat sayohat uchun ketishi yoki ish, mehnat uchun ketish holatlarini kuzatishimiz mumkin. Hozirgi kunda yoshlar orasida ham migratsiya jarayoni keskin ko‘payib bormoqda. Bunga asosiy sabab nimada? Texnika texnologiyalar rivojlangan sari ish topishda ba’zida muammolarga duch kelamiz ya’ni malaka yetishmovchiligi, ish bilmaslik yoki aksincha o‘zimiz qiziqqan soha bo‘yicha ish sharoiti yoki moddiy tomonlama to‘g‘ri kelmasligi holatlari. Malaka oshirish va o‘zini yanada rivojlantirish maqsadida chet elga o‘qish uchun, tajriba almashish uchun ketgan yoshlar ko‘p hollarda o‘sha joyning o‘zida ishlab qolishadi. Chunki ish uchun to‘lanadigan oylik maoshlari nisbatan yuqori va u yerda raqobat kuchliroq. Raqobat bor joyda o‘shish, o‘zini ustida ko‘proq ishlash va rivojlanish bo‘ladi.

Statistik natijalarga ko‘ra O‘zbekistonda yiliga umumiy o‘rta ta’lim va kasb-hunar ta’lim muassasalarini 650mingga yaqin yoshlar bitiradi, ularning 160-165 ming nafari oily o‘quv yurtlarining bakalavr dasturiga qabul qilinadi. O‘zbekiston iqtisodiyotida yiliga o‘rtacha 300 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, natijada 200 mingga yaqin yoshlar mustaqil ravishda, jumladan, xorijdan ish qidira boshlaydi.<sup>2</sup> Migratsiyaning ortib borishi ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bunda asosan tajriba orttirish, daromad olish, ko‘proq bilim olish imkoniytalari ijobiy jihatlari bo‘lsa, ijtimoiy moslashuv muammolari, oilaviy uzilishlar, og‘ir mehnat natijasida yuzaga keladigan kasalliklar salbiy oqibatlarga misol bo‘la oladi.

<sup>1</sup> <https://demografiya.uz/uz/wiki/mehnat-migratsiyasi-2/>

<sup>2</sup> <https://strategy.uz/index.php?news=1813>



Bugungi postindustrial jamiyatda xalqlarning turli maqsad va omillar asosida bir hududdan ikkinchi hududga ko‘chib o‘tishi, mazkur hududlardagi xalqlar bilan qo‘shilib borishi mamlakatlarning ishlab chiqarishdan tortib, demografiyasigacha ta’sir ko‘rsatmoqda. Ko‘chib borgan aholining muomala odobi, huquqiy madaniyatida bo‘layotgan o‘zgarishlar migrantlarni yetkazib berayotgan jamiyat etosferasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda.<sup>3</sup>

Migratsiya jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri bu ish haqining kechikishi holatlari, ya’ni ish beruvchi tomonidan oylik ish haqlarining o‘z vaqtida berilmasligini ko‘p kuzatish mumkin. Bunga misol qilib xalqaro migratsiya ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning birinchi choragida 133 ming muhojir Rossiyadan O‘zbekistonga qaytdi. Buning sababi yuqorida aytib o‘tganimizdek ish beruvchilar tomonidan ish haqining kechikishi bo‘lishi, buni mehnat migratsiyasii agentligiga mingdan ortiq shikoyat kelib tushganligi tasdiqlaganini<sup>4</sup> ko‘rishimiz mumkin.

Bundan tashqari mehnat migratsiyasi jarayonida yana bir nechta migratsiya bilan bog‘liq muammo va xatarlarni ko‘rishimiz mumkin. Noqonuniy migratsiya ya’ni tashqi mehnat migratsiyasi agentligi xorijga chiqmoqchi bo‘lgan har bir kishiga qonuniy ish topish imkoniyatini yaratishda qiyinchiliklarga duch keladi, buning natijasida qonuniy yo‘l topa olmagan muhojirlar vositachilarga murojaat qilishga majbur bo‘ladi, bu esa noqonuniy migratsiya, ekspluatatsiya va odam savdosi xavfini oshiradi. Yaxshiroq hayot izlab, ular boshqa mamlakatlarga yo‘l olishadi, ammo ko‘pincha og‘ir mehnat sharoitlari, majburiy mehnat, huquqlardan mahrum bo‘lish, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishning cheklanganligi kabi muammolarga duch kelishadi. Migrantlarning huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoyalanganligini ham bir muammo sifatida ko‘rib o‘tish

<sup>3</sup> “Migratsiya jarayonlarining madaniyatlararo intergratsiyaga ta’siri: muammo va yechimlar” B.A.Talapov; 82-b

<sup>4</sup> <https://strategy.uz/index.php?news=1813>



mumkin. Masalan, Volgograd viloyatidagi ish beruvchiga nisbatan O‘zbekiston fuqarolarining shikoyatlari o‘rganilganda, migrantlarning hujjatlarini musodara qilish, ish haqini to‘lashni kechiktirish va ish kunlarini haddan tashqari uzaytirish kabi qonunbuzarliklar ish beruvchi tomonidan sodir etilganligi aniqlangan.<sup>5</sup> Bundan tashqari malaka yetishmasligi, xorijiy tillarni yaxshi bilmaslik natijasida ko‘plab migrantlar past maoshli sohalarda ishlashga majbur bo‘lmoqda. Buni natijasida so‘g‘liq jihatdan turli og‘ir kasalliklarga ham duch kelishmoqda.

**Mulohaza va natijalar.** Eng keng tarqalgan qiyinchiliklar orasida ishchilarning ekspluatatsiyasi, tez-tez o‘tkaziladigan tekshiruvlar, maoshning to‘lanmasligi, me‘yoriy ish vaqti rejimining buzilishi va boshqa mehnat huquqlarining buzilishi mavjud. Bu holatlar migrantlar uchun qo‘shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqarib, ularga munosib va xavfsiz yashash sharoitlarini yaratish imkoniyatidan mahrum etadi.<sup>6</sup>

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoda taxminan 281 million xalqaro migrant mavjud bo‘lib, bu umumiy aholining 3,6 foizini tashkil etadi. Mojaro, zo‘ravonlik, siyosiy yoki iqtisodiy beqarorlik, iqlim o‘zgarishi va boshqa ofatlar tufayli o‘z mamlakatlarini tark etayotganlar soni yanada ortib bormoqda. Biroq Jahon Banki ekspertlarining ta’kidlashicha, migratsiya farovonlik va taraqqiyotning kuchli manbai bo‘lishi mumkin: agar to‘g‘ri boshqarilsa, u yuboruvchi va qabul qiluvchi mamlakatlar uchun ham foyda keltiradi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek migratsiya to‘g‘ri boshqarilsa har ikkala mamlakat uchun ham foyda keltirishi mumkin. Ya’ni yuboruvchi va qabul qiluvchi mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro kelishuv, shartnoma asosida tashkil etilgan migratsiya jarayonlarida ko‘radigan bo‘lsak, bunda chet elda malaka oshirish, ko‘proq bilim va tajriba orttirish natijasida mamlakatda yanada yuqori natijalarga erishishi va ko‘proq

<sup>5</sup> <https://kun.uz/news/2025/02/04/mehnat-migratsiyasi-joriy-holat-muammolar-va-takliflar>

<sup>6</sup> <https://kun.uz/news/2025/02/04/mehnat-migratsiyasi-joriy-holat-muammolar-va-takliflar>



foйда keltirishi mumkin. Ba'zi hollarda esa yaxshi kadrlarni yo'qotishi ham mumkin. Malaka oshirish maqsadida ketgan yoshlarga yaxshi ish va maosh takliflari bildirilishi natijasida o'z mamlakatiga qaytmaslik va o'sha joyning o'zida yanada rivojlanishni tanlash holatlari yuzaga keladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak migratsiya jarayoni yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi: ular xorijda bilim va tajriba orttiradi, moliyaviy ahvolini yaxshilaydi va dunyoqarashini kengaytiradi. Biroq bu jarayonning salbiy jihatlari ham mavjud. Shu bois yoshlar migratsiyasini samarali boshqarish uchun davlat tomonidan bandlikni ta'minlash, sifatli ta'lim va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish, yoshlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish zarur hisoblanadi. Bundan tashqari, migratsiya jarayonlarini tartibga solish va nazorat qilish orqali ham uning salbiy oqibatlarini kamaytirish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 3-shu'ba: Globallashuv davrida migratsion jarayonlarning madaniyatlar o'zgarishidagi o'rni; <sup>1</sup> "Migratsiya jarayonlarining madaniyatlararo intergratsiyaga ta'siri: muammo va yechimlar" B.A.Talapov; 82-b

#### **Axborot manbalari:**

1. <https://kun.uz/news/2025/02/04/mehnat-migratsiyasi-joriy-holat-muammolar-va-takliflar>
2. <https://strategy.uz/index.php?news=1813>